# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

#### ADIZOVA NODIRA BAXTIYOROVNA

# TALABALARDA KOGNITIV-PRAGMATIK KOMPETENTLIKNI MUAMMOLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI (ONA TILI O'QITISH MISOLIDA)

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili)

PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiya AVTOREFERATI

UO'K: 378.015.31:81

Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc) on pedagogical sciences
Adizova Nodira Baxtiyorovna  Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida
rivojlantirish metodikasi (ona tili oʻqitish misolida)
Адизова Нодира Бахтиеровна
Методика развития познавательно-прагматической компетентности
учащихся на основе проблемных технологий (на примере обучения родному
языку)
Adizova Nodira Bakhtiyarovna
Methods of developing cognitive and pragmatic competence of students based on problem technologies (using the example of teaching their native language)59
E'lon qilingan ishlar roʻyxati
Список опубликованных работ
List of published works65

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

наукам

Оглавление автореферата доктора науки (DSc) по педагогическим

# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

#### ADIZOVA NODIRA BAXTIYOROVNA

# TALABALARDA KOGNITIV-PRAGMATIK KOMPETENTLIKNI MUAMMOLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI (ONA TILI O'QITISH MISOLIDA)

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili)

PEDAGOGIKA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.DSc/Ped438 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro daylat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (oʻzbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va "ZiyoNET" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Nurullayeva Shahlo O'ktamovna.

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Pasmiy opponentlar:

Abuzalova Mehriniso Kadirovna

filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Maylonova Klaraxon Maxmutovna

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Asqarova Manzura Avazbekovna

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil " 20 " noyaba soat 13 dagi majlisida boʻlib oʻtadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol koʻchasi, 1V-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy.) Tel.: (0.365) 221-25-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "6 "noyakiarqatildi. (2025-yil "6 "noyakada 1 – raqamli reyestr bayonnomasi).

Y.S.Saidov Ilmiy kengash raisi, (DSc), professor N.LG'aybullayeya ilar bakuchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya faplaco oktori (DSc), professor

M.K.Abuzalova Ilmiy darajalar beruvehi Ilmiy seminar raisi. filologiya fanlari doktori (DSc), professor

### KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimidagi islohotlar bilab bogʻliq oʻzgarishlar pedagogik jarayonlarda innovatsion yondashuvlarni amaliyotga faol joriy etishni taqozo etmoqda. Zero, ta'lim jarayonida kognitiv-pragmatik yondashuv asosida talabalarga insonparvarlik tarbiyasini berish hamda ularda nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ta'lim forumi (World Education Forum) va Lissabon Konvensiyalari malakali ijodkor kadrlar tayyorlashning innovatsion yoʻnalishlarini belgilashda muhim oʻrin tutadi. Bu borada Bolonya jarayoni doirasida oʻqitishning faol va interfaol shakllari variativligini ta'minlash, zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lim muassasasi talabalarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish muammosi dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyo miqyosida talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish gumanitar fanlarning yangi asrdagi yetakchi yoʻnalishlaridan biridirki, bu boradagi tadiqotlar markaziga insonni qoʻyish orqali jamiyatda insonning oʻrnini oʻrganish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zotan, filologik fanlarni oʻrganish va oʻrgatishda ta'lim oluvchilarning kreativ kompetentligini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirishning yangi metodlari mohiyatini ochib berishda zamonaviy yondashuv imkoniyatlaridan samarali foydalanish amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, ta'limning yangi paradigmalariga oʻtish nafaqat talabalarning oʻz-oʻzini ijodiy rivojlantirishiga innovatsion yondashuvlarni, balki ayni jarayonni ta'minlashga imkon beruvchi metodologik asoslarni ham takomillashtirishni taqozo etadi.

Respublikamizda ham oliy ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichi ta'lim mazmuni va metodikasiga, uning samaradorligini oshirishga sifat jihatidan yangi talablar qo'ymoqda. Prezidentimizning "yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuygʻusi, bagʻrikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash" 1 borasidagi koʻrsatmasi mazkur ishlarni mazmunan yangi bosqichga ko'tarishga zamin hozirlaydi. Unda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlari asosida yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"2gi farmoni hamda boshqa koʻplab qarorlari belgilangan ustuvor vazifalar mazmuni ta'lim sifatini ko'tarish, ilmiy va rivojlantirish, yo'naltirilgan innovatsion faoliyatni maxsus maqsadlarga mutaxassislik fanlari negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish,

 $^1$  Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида" П $\Phi$ -60-сон  $\Phi$ армони. 2022 йил 28 январь.

<sup>&</sup>lt;sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўгрисида" ПФ-6084-сон Фармони. 2020 йил 20 октябрь.

pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, inson qadrini ulugʻlash, zamonaviy yondashuv tamoyillari va texnologiyalarini amaliyotga keng qoʻllash boʻyicha tegishli bilim, koʻnikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan ona tili ta'limi jarayonida talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida" PF-60-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "Oʻzbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida" PF-5847-son, 2020-yil 6-noyabrdagi "Oʻzbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" PF-6108-son, 2019-yil 21-oktabrdagi "Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-5850-son farmonlari, shuningdek, davlat dasturi loyihalarida "Ta'lim muassasalarida davlat tilini oʻrgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish" zarurligi alohida ta'kidlanganligi hamda mazkur mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari" ustuvor yoʻnalishiga mos ravishda bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi boʻyicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>4</sup>. Zamonaviy sharoitda boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning metodologik va ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, integrativ kasbiy bilim berishning tizimli modellarini ishlab chiqish va natijalarini obyektiv baholash boʻyicha tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida, oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Belfield pedagogical university (Germaniya), National Advice on pedagogical technology (Angliya), AICHI university of Education (Yaponiya), National Institute Of Technical Teachers Training And Research (Hindiston), Shaansi Normal University (Xitoy), Princeton university (AQSH), Ta'lim akademiyasi (Rossiya), Toshkent davlat pedagogika universiteti (Oʻzbekiston) da ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

\_

<sup>&</sup>lt;sup>3</sup> www.lex.uz/ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2019 йил 21 октябрдаги "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавкеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида" ПФ-5850-сон Фармони. – Тошкент. 2019 й. 21 октябрь.

<sup>&</sup>lt;sup>4</sup> Dissertatsiya mavzusi boʻyicha xalqaro ilmly tadqiqotlar sharhi <u>www.myhomelatvia.com/se/novosti/index; www.jurnal.org/arti - cles/2008/ped9.html; http://iibrary.by/portalus/modules/pedagog-ics/; www.duskyrobin. Com/Z2005-01-00045.pdf (Technical Education: Global Trends and Challenges/on the occasion of International Seminar (2013), Jonson's Institute Of Technology, India). Industrial Technology Education II. Group Training Course/12 June-21 July, 2006. JICA of the Government of Japan. Role of English language in Educational System under Bologna program/ seminar (2017, Tashkent) va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.</u>

Boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, ijodkorligini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish muammosi boʻyicha oʻqitishning an'anaviy va zamonaviy didaktik vositalari asosida talabalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishning integrativ texnologiyalari ishlab chiqilgan (Shaansi Normal University); kasbiy-pedagogik ijodkorlikni jarayonini loyihalash metodlari tizimlashtirilgan (Princeton university); innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni intellektual va psixoemotsional rivojlantirish tizimi yaratilgan pedagogical university); bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan "Monodzukuri" texnologiyalari ishlab chiqilgan (AICHI university of Education); kompetentli yondashuv asosida boʻlajak oʻqituvchilarda kasbiy ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning kognitiv, affektiv va psixomotorik asoslari takomillashtirilgan (National Institute Of Technical Teachers Training And Research); mediatexnologiyalar va tyutorlik tizimini joriy etish orgali talabalarda ijodiy-tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mexanizmi ishlab chiqilgan (National Advice on pedagogical technology); ta'lim jarayonini boshqarishni avtomatlashtirish asosida ijodkorlikni rivojlantirishning intellektual tizimlari ishlab chiqilgan (Rossiya); oʻqitishning an'anaviy va zamonaviy didaktik vositalari asosida talabalarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning integrativ texnologiyasi, "Smart University" loyihasi va pedagogik ta'lim klasterlari yaratilgan (O'zbekiston).

o'rganilganlik darajasi. Muammoning Respublikamizda bo'laiak oʻqituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash, ta'lim-tarbiya jarayoni, uning sifatini masalalari bo'yicha N.Azizxodjayeva, T.M.Egamberdiyeva, boshqarish J.A.Hamidov, A.R.Hamroyev, U.I.Inoyatov, Z.K.Ismailova, N.A.Muslimov, B.A.Nazarova, X.F.Rashidov, H.Caidahmedov, S.T.Turg'unov, E.O.Turdiqulov, O'.Q.Tolipov, B.To'xliyev, D.O.Ximmataliyev, Sh.J.Yusupova, G'.H.Hamroyev, I.I.Zokirov, M.B.O'rozova, Sh.S.Sharipov<sup>5</sup> va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

\_

<sup>&</sup>lt;sup>5</sup> Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик махорат. Ўкув кўлланма. – Т.: ТДПУ, 2003. –174 б.; Эгамбердиева Т.М. Маданий-инсонпарварлик ёндашуви асосида бўлажак ўкитувчиларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш. – Т.: Fan va texnologiya, 2009. – Б.135.; Хамидов Ж.А. Бўлажак касб таълими ўкитувчиларини тайёрлашда ўкитишнинг замонавий дидактик воситаларини яратиш ва кўллаш технологияси: Пед. фан. док...дисс.(DSc). – Т., 2017.; Хамроев А.Р. Она тили таълимида ўкувчиларнинг ижодий фаолиятини лойихалаштириш: Пед. фан. док. ...дисс.(DSc). - Т., 2020.; Иноятов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления контроля качества образования в профессиональном колледже: Дисс....докт. пед. наук. - Т., 2003. - 327 с.; Исмаилова З.К. Талабаларнинг касбий педагогик малакаларини шакллантириш: Пед.фан.ном. ...дисс. - Т. 2000. - 186 б.; Муслимов Н.А. Касб таълими ўкитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий методик асослари: Пед.фан док. ...дисс.-Т.: 2007. - 315 б.; Назарова Б.А. Бўлажак ўкитувчиларда креатив ёндашув асосида тадкикотчилик лаёкатини тарбиялаш: Пед.фан.док. ...дисс. - Т. 2018. - 225 б.; Рашидов Х.Ф. Теоретико-методологические и специальнопедагогические основы развития среднего специального, профессионального образования в Узбекистане: Дисс....докт.пед.наук. - Т.: 2005. - 311 с.; Саидахмедов Н. Педагогик амалиётда янги технологияларни қўллаш намуналари. – Т.: РТМ, 2000. – 46 б.; Турғунов С.Т., Мақсудова Л.А. ва б. Педагогик жараёнларни ташкил этиш ва бошқариш технологиялари. – Тошкент: Sano-standart, 2012. – 48 б.; Турдиқулов Э.О., Джураев Р.Х. ва б. Интеграциялашган таълим назарияси ва амалиёти. – Т., 2009. – 176 б.; Толипов У.К. Олий педагогик таълим тизимида умуммехнат ва касбий куникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари: Пед.фан.докт. ...дисс. - Т. 2004. - 314 б.; Toʻxliyev B., Oxunjonova O., Jumashev D. Oʻzbek tili oʻqitish metodikasi. - Toshkent, 2011.; Химматалиев Д.О. Касбий фаолиятта тайёргарликни диагностика

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida O.A.Abdulina, L.V.Andropova, V.P.Bespalko, Y.M.Borisova, E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya, V.A.Kan-M.I.Lukyanova, V.A.Slastenin S.N.Mironenko, T.M.Sarokina, Kalik, boshqalar<sup>6</sup> tomonidan bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni qoʻllash, kasbiy-pedagogik tayyorlash samaradorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiytadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Xorij olimlaridan G.Spenser, B.Blum, R.Mohan, H.Miyakawa, Jagatrahan, G.Kulanthaivel, Y.Xuqin<sup>7</sup> kabilarning tadqiqotlarida ta'limda ijodkorlik, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, kasbiy-pedagogik yetuklik muammolariga alohida e'tibor qaratilgan. Dunyo hamjamiyatida ta'limga turlicha yondashuvlar, ta'lim jarayonida oʻqituvchi faoliyati, uning ijodkorligi, innovatsiyali texnologiyalar, gʻoyalar, maktablar, yoʻnalishlar borasida I.Johnson<sup>8</sup>

\_

килишда педагогик ва техник билимлар интеграцияси: Пед.фан.док. ...дисс. – Т. 2018. – 230 б.; Юсупова III. Тил таълими ва фалсафа. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2009. – 140 б.; Зокиров И.И. Таълим жараёнига янги педагогик технологияларни татбик этишнинг назарий-амалий асослари: Пед.фан.ном. ...дисс. – Т., 2005. – 124 б.; Ўрозова М.Б. Бўлажак касбий таълим педагогини лойихалаш фаолиятига тайёрлаш технологиясини такомиллаштириш: Пед.фан.докт. ...дисс.автореф. – Т. 2015.; Шарипов Ш.С. Талабалар ихтирочилигини шакллантиришнинг педагогик шароитлари: Пед.фан.ном. ...дисс. – Т., 2001. – 140 б.

<sup>6</sup> Абдуллина О.Л. Общепедагогическая подготовка учителя в системе высшего педагогического образования: для пед.специальностей высших учебных заведений. 2-изд., перераб. и доп. - Москва: Просвещение, 1990. – 141 с.; Антропова Л.В. Формирование профессиональной готовности учителя к педагогической деятельности в адаптивной школе: Дисс.... д-ра пед. наук. – Москва, 2004. – 396 с.; Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. – Москва: Просвещение, 1995. – 336 с.; Борисова Е.М. Профессиональное самоопределение: личностной аспект: Авт. ...дисс.докт.псих.наук.-М.,1995.-41 с.; Зеер, Э.Ф. Психология профессионального образования. - Москва: Изд. Московского психолого-социального института. – Воронеж: МОДЕК, 2003. – 480 с.; Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования . // Высшее образование сегодня. - 2003. № 5. С. 34-42.; Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. – Москва: Педагогика, 1990. –144 с.; Лукьянова М.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя // Педагогика, 2001. – №10.–С. 56-61.; Мироненко С.Н. Интеграция педагогического и технического знания как условие подготовки педагога профессионального обучения к диагностической деятелтности: Дисс....канд. пед. наук. – Череповец, 2014.-164 с.; Сластенин В.А. Педагогика: учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений. – Москва, 2000. – 512 с.; Сорокина Т.М. Развитие профессиональной компетенции будущего учителя средствами интегрированного учебного содержания // Начальная школа, 2004. №2. – С. 110 – 114.

<sup>&</sup>lt;sup>7</sup> Спенсер Г. Основания психологии. — Москва: Издательство,1998. — С.560.; Mohan R. Teacher education. Published by Asoke K.Ghosh, PHI Learning Private limited, Rimjhim House, 111, Printed by Mudrak, 30-A, Delhi-110091/ ISBN-978-81-203-4382-5, India, 2013.; Blum A. The development of an Integred Science Curriculum. Information Scheme Fur. // Science Education 1981, vol. 3, −P. 1-15.

<sup>&</sup>lt;sup>8</sup> Creative Teaching: Using Creative Teaching Methods in a Student-centered ESL Environment. Ivy Johnson. ivy.m.johnson@gmail.com; Bandura A. (Ed.). Self-efficacy in changing societies. - New York: Cambridge University Press, 1995.; John H. Holland Redwood City, California.-Addison-Wesley, 1998.; Botcheva L., Shih J., Huffman L. C. Emphasizing Cultural Competence in Evaluation // American Journal of Evaluation, 2009. Volume 30. №2. – P.176-188.; A professional development program for the mother tonguebased teacher: addressing teacher knowledge and attitudes about mtbmle A Dissertation Presented by Rebecca Paulson Stone https://scholarworks. umass. edu/cgi/ viewcontent.cgi?article=1593&context= open\_access\_dissertations.; Mario Barajas, Fr?d?rique Frossard (University of Barcelona). Docent - digital creativity enhanced in teacher education. Framework of digital creative teaching competences. This project has been funded with support from the European Commission.; Larsen, Lars Jacob Ege, "Teacher and student perspectives on a blended learning intensive English program writing course" (2012). Graduate Theses and Dissertations. 12375. https://lib.dr.iastate.edu/etd/12375; Universitat rovira ivirgili theacher training in ict-based learning settings. Desing and implementation of an on-line instructional model for english language teachers. Doctoral thesis. Maria del Mar Camacho i Mart. ISBN: 978-84-690-7634 / DL: T.1394-2007; Demetriadis S. "Cultures in negotiation": teachers' acceptance/resistance attitudes considering the infusion of technology into schools, Computers and Education, Volume 41, Issue 1, 2013, - P. 19-37.; Wong S.L., Ab Jalil H., Fauzi Mohd Ayub A., Abu Bakar K., Tang S.H. Teaching a discrete information technology course in a

(San-Fransisko) ijodiy ta'limni tashkil etish, A.Bandur, Paulson Stone (Massachutes, AQSH) ona tilini oʻrganishda oʻqituvchi va oʻquvchi munosabati, Hernan Avila (Kolumbiya), Joseyln Howard (AQSH) oʻqituvchi faoliyatini loyihalashning metodik imkoniyatlari, Lars Yasob (Britaniya) oʻqituvchi va oʻquvchi istiqbollari, Mariya Bajaras (Ispaniya, Erasmus +, Strategis Partnerships for higher education, 2017-2019 Project number: 2017-1- IT02-KA203- 036807) ta'limda raqamli ijodkorlik, Maria del Mar Samacho Marti (Nyu-York) AKTga asoslangan sharoitda oʻqituvchining faoliyatini loyihalash, Peter Edelenbos, Richard Jonstone (Yevropa ta'lim va madaniyat komissiyasi) oʻquvchilarni oʻqitishda tilga oʻrgatish, F.Amari oʻqituvchilar dasturiy vositalardan foydalanishi, S.Wond oʻqituvchilar muloqotga kirishish darajasi, S.Demetriadis ona tili ta'limida mustaqil fikrlashga oʻrgatish boʻyicha qator tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarini oʻrganish, oliy ta'lim muassasalarida oʻqituvchilar tayyorlash jarayonining tashkil etilishi, malakaviy pedagogik amaliyot holati tahlili shuni koʻrsatdiki, ona tili ta'limiga bugungi kunda jahonning til ilmi ta'limida mustaqil ilmiy paradigma sifatida shakllangan kognitiv-pragmatik tilshunoslik yoʻnalishlarini zamonaviy yondashuvlar asosida oʻqitish imkoniyatlari toʻla yoritilmaganligi talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish tamoyillari va texnologiyalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish zaruratini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiytadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Mazkur dissertatsiya Buxoro davlat universitetining "Oʻqituvchilar tayyorlash: ta'lim-tarbiya muammolari va istiqbollari (2023-2028-yy.)" nomli asosiy ilmiy-tadqiqot mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

# Tadqiqotning vazifalari:

tadqiqot mavzusiga oid mavjud holatni oʻrganish, ilmiy manbalarni tahlil etish asosida talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

ona tili ta'limi yondashuvlarini qiyosiy tavsiflash asosida talabalarning nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik tuzilmasi, klasterli modeli, algoritmik xaritasini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish texnologiyasini takomillashtirish;

talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosidagi pedagogik jarayonda verbal, koʻrgazmali, texnik va didaktik ta'lim

constructivist learning environment: is it effective for Malaysian pre-service teachers? The Internet and Higher Education, Volume 6, Issue 2, 2003. – P. 193-204.

vositalarining ta'limdagi o'rnini rivojlantirish maqsadida raqamli ta'lim vositalarini qo'llash va joriy etishning metodik ta'minotini takomillashtirish;

talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida oʻqitishda boʻlajak oʻqituvchilar faoliyatini takomillashtirish, kasbiy-pedagogik ijodkorlik jarayonida ijodiy matnlar, pedagogik keyslar, muammoli topshiriqlarni bajarishni bosqichma-bosqich amalga oshirish; talabalar ijodkorligini reproduktiv, produktiv, qisman izlanishli va kreativ darajada baholash; baholash koʻrsatkichlari hamda mezonlarini tadqiqot mazmuniga mos holda tanlash (modifikatsiyalash) va amalda joriy etish;

talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirishning axborot-metodik ta'minotini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish jarayonlari olingan, jarayonda Buxoro davlat pedagogika instituti, Qarshi davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti va Urganch davlat universitetlaridan 903 nafar talaba ishtirok etgan.

**Tadqiqotning predmeti**ni talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirishning mazmuni, shakli, metod hamda vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida muammoga doir ilmiy, siyosiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy oʻrganish va tahlil etish; ta'lim muassasalaridagi ilgʻor pedagogik tajribalarni oʻrganish; sotsiometrik metodlar (anketa, testlar, kuzatuv, intervyu, suhbat); pedagogik eksperiment; talabalar faoliyatini oʻrganish, pedagogik kuzatish, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

# Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari muammoli ta'lim muhitida ijodiy tafakkurni rivojlantirish, faollikka undash, tarixiylik, tizimlilik va integrativlik tamoyillariga moslashtirish hamda metodik, texnologik va psixologik aspektlarni tasniflash va muvofiqlashtirish asosida aniqlashtirilgan;

konstruktiv va integrativ yondashuvlarni onglilik, izchillik va yaratuvchanlik tamoyillariga uygʻunlashtirish hamda integratsiyalashgan tizimli ta'minotni refleksiv pedagogik, kognitiv ta'lim nazariyalariga muvofiqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasi zamonaviy "Insert", "Scamper", "Ikki qismli kundalik", "Thinking hats", "What if...", "Clear" interfaol metodlarni muammoli ta'lim, debatlar, holat tahlili, loyihaviy va tadqiqotchilik yondashuvlariga mosligini ta'minlash hamda innovatsion faolligini oshirishga qaratilgan mikromuhit yaratish asosida takomillashtirilgan;

talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish ilmiy kategoriya va atamalar bilan erkin mulohaza yuritish, mustaqil va ijodiy fikrlash doimiyligini ta'minlash hamda ilmiy va hayotiy misollar keltirishga koʻra topshiriqlar majmuyi va raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish pragmatikligi va ratsionalligiga erishish asosida takomillashtirilgan;

talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish samaradorligi kognitiv-amaliy, faoliyatli-refleksiv, intellektual-ijodiy obyektiv va subyektiv mezonlarni baholashning yuqori, oʻrta va past darajalari muvofiqligiga erishish hamda oʻquv topshiriqlarini oʻzlashtirishning vektorial oʻsishini ta'minlash asosida takomillashtirilgan.

### Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"Talabalarda ona tili oʻqitishda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasi" nomli monografiya; "Ona tili oʻqitish metodikasi", "Ona tili va oʻqish savodxonligida sinfdan tashqari ishlar" va "Mutaxassisilik fanlarni oʻqitish metodikasidan seminar mashgʻulotlari" nomli oʻquv qoʻllanmalar; "Ona tili oʻqitish metodikasi", "Mutaxassisilik fanlarni oʻqitish metodikasi" nomli darslik, "Ona tili oʻqitish metodikasi"dan elektron darslik tayyorlagan;

talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish asosida boʻlajak oʻqituvchilarni kasbiy-pedagogik ijodkorlikka qaratilgan innovatsion usullar, pedagogik keyslar, insonparvarlik mazmunidagi ijodiy matnlar "Ona tili oʻqitish metodikasi" (№DGU 19354) nomli elektron darslik mazmunida oʻz aksini topgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish natijasidagi kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishga doir milliy tajriba, respublikamiz va chet ellik olimlar, shuningdek, tajribali oʻqituvchilarning oʻquv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga doir tajribalarga asoslanganligi; tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, oʻzaro bir-birini toʻldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qoʻllanilganligi; tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor, shuningdek, sifat jihatidan ta'minlanganligi; tajribasinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ahamiyati talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni texnologiyalar asosida rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari, texnologiyalari hamda ularni joriy etish metodikasining ishlab chiqilganligi, texnologiyasi, dinamikasi. mezonlari takomillashtirilganligi; texnologiyalar asosida ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni va ahamiyati yoritib berilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish masalasi oʻquvtarbiya jarayonini modernizatsiyalash, oʻqituvchilarning pedagogik va metodik bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qilganligi, boʻlgʻusi oʻqituvchilarni kasbiy

faoliyatga tayyorlashga doir metodlar ishlab chiqilganligi hamda amaliyotga tatbiq etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish boʻyicha ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari muammoli ta'lim muhitida ijodiy tafakkurni rivojlantirish, faollikka undash, tarixiylik, tizimlilik va integrativlik tamoyillariga moslashtirish hamda metodik, texnologik va psixologik aspektlarni tasniflash va muvofiqlashtirish takliflaridan pedagogika oliy ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan "Ona tili o'qitish metodikasi" darsligini tayyorlashda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-maydagi 194-son buyrug'i, 194-425-son guvohnomasi). Natijada ona tili ta'limiga kognitiv-pragmatik yondashuv texnologiyalarini takomillashtirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalarni ommalashtirishga erishilgan;

kognitiv-pragmatik kompetentlikni rivojlantirishning modeli konstruktiv va integrativ yondashuvlarni onglilik, izchillik va yaratuvchanlik tamoyillariga uygʻunlashtirish hamda integratsiyalashgan tizimli ta'minotni refleksiv pedagogik, kognitiv ta'lim nazariyalariga oid takliflardan O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining "A1-XT-0-92997-raqamli Yoshlarni umuminsoniy milliy va tarixiy qadriyatlar uygʻunligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi amaliy kognitiv-pragmatik "Talabalarda kompetentlikni lovihasining texnologiyalar asosida rivojlantirishning shakl va vositalari" qismini bajarishda foydalanilgan. (O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot Qoraqalpog'iston filialining 2025-yil 21-apreldagi 179-son ma'lumotnomasi). talabalarning kognitiv-pragmatik kompetentligi muammoli texnologiyalari asosida rivojlantirilgan;

talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasi zamonaviy "Insert", "Scamper", "Ikki qismli kundalik", "Thinking hats", "What if...", "Clear" interfaol metodlarni muammoli ta'lim, debatlar, holat tahlili, loyihaviy va tadqiqotchilik yondashuvlariga mosligini ta'minlash hamda innovatsion faolligini oshirishga qaratilgan mikromuhit yaratishga oid takliflar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 20noyabrdagi 02/02-01-163-ma'lumotnomasida asoslangan (Oliy ta'lim, fan va innovatsivalar vazirligining 2023-yil 20-noyabrdagi 02/02-01-163-Natijada talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni ma'lumotnomasi). muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish modelini takomillashtirishga erishilgan;

talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirish samaradorligi kognitiv-amaliy, faoliyatli-refleksiv, intellektual-ijodiy obyektiv va subyektiv mezonlarni baholashning yuqori, oʻrta va

past darajalari muvofiqligiga erishish hamda oʻquv topshiriqlarini oʻzlashtirishning vektorial oʻsishini ta'minlashga doir taklif va tavsiyalardan Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Assalom, Buxoro", "Najot bilimda" telekoʻrsatuvlarini tayyorlashda, televideniye jamoasining sohaviy ishlarida, xususan, madaniy, dolzarb hamda ilmiy yoʻnalishdagi koʻrsatuvlarni tayyorlashda foydalanilgan (Oʻzbekiston MTRK Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 3-martdagi 01-09-66-son ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirishorqali boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy koʻnikmasi takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 41 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 19 ta maqola, shundan, 8 tasi xorijiy va 11 tasi respublika jurnallarida, 3 ta darslik, 3 ta o'quv qo'llanma, 1 ta mualliflik guvohnomasi, 2 ta monografiya chop qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, toʻrt bob, 11 paragraf, 223 sahifa matn, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati hamda ilovalardan iborat.

#### **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirishning nazariy asoslari" deb nomlangan birinchi bobida ona tili ta'limidagi nutqiy vaziyatlar va kognitiv-pragmatik yondashuvning ilmiy-pedagogik mohiyati, ona tili oʻqitishning ijtimoiy-pedagogik tahlili, ona tili ta'limiga kognitiv-pragmatik yondashuvning mavjud holati yoritilgan.

Dunyo tilshunosligining bir boʻlagi boʻlgan oʻzbek tili tadqiq tizimida ham yetakchi paradigmalardan biri hisoblangan antropotsentrizm keng tahlilga tortilmoqda. Bu oʻzbek tilshunosligi rivojini yanada yuqori pogʻonaga koʻtarishi bilan birga tilimizning jamiyat, madaniyat, milliy mentalitet va ruhiyat bilan uzviyligini koʻrsatishga xizmat qiladi. Biz tadqiq qilayotgan kognitiv-pragmatik yondashuv texnologiyalari oliygohlarda ona tili ta'limidan saboq beruvchi professor-oʻqituvchilar va talabalarga til hodisalarini inson omili bilan bogʻlab oʻrganish imkoniyatini beradi. Tilshunoslikdagi kognitiv-pragmatik yoʻnalish inson mohiyatini til bilan chambarchas bogʻlab tahlil qiladi. Professor

N.Mahmudov tilshunoslikda kognitiv-pragmatik paradigmaning shakllanishi haqida mulohaza yuritar ekan: "Tilning obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda kognitiv-pragmatik paradigmada inson asosiy oʻringa chiqariladi, til esa, inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi" devdi. Zamonaviy tilshunoslikdagi antropotsentrizm yoʻnalishi diqqat markazida lisoniy omillar inson faolivatidagi til hodisalari votadi. Tadqiqotchilar D.Xudayberganova, G.Nasrullayeva, N.Normurodovaning izlanishlarida oʻzbek tilshunosligida metaforani kognitiv-pragmatik talqinda tushuntirish zarurati va metaforalar tasnifida kognitiv-pragmatik talqin, kognitiv va konseptual metafora tasnifiga doir yondashuvlar muhokama etiladi.

Bitiruvchilar pedagogik amaliyotga, raqobatli muhitga tayyor boʻla olmayapti. Ta'lim jarayonining samaradorligi uning qanday yondashuvlardan foydalanilayotgani bilan uzviy bogʻliq. Quyida bir nechta yondashuvlarning farqlovchi jihatlarini kuzatdik va tahlil qildik (Qarang:1.1-jadval):

"1.1-iadval."	Yondashuvlarnin	g faralovchi	iihatlari
1.1-jauvai.	i viiuasiiu viai iiiii	Z iai giv (tiii	mana mana mana mana mana mana mana mana

Yondashuv turlari	Farqlovchi koʻrsatkichlar					
Integrativ yondashuv	Fanlararo bogʻlanishni nazarda tutuvchi yondashuv					
Aksiologik yondashuv	Inson hayotini qadriyat sifatida qaraydigan asosiy falsafiy qadriyatlar nazariyasiga asoslangan yondashuv					
Kompetentli yondashuv	Kasbiy pedagogik ijodkorlikni rivojlantiruvchi yondashuv					
Animatsion yondashuv	Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan animatsiyalar asosidagi yondashuv					
Faoliyatli yondashuv	Tarbiya dasturi, aniq faoliyat yuritadigan tarbiya tizimini oʻz ichiga olgan yondashuv					
Sinergetik yondashuv	Pedagogga tarbiya jarayonini nochiziqli harakat sifatida tushuni rgetik yondashuv tarbiya tizimlari ochiqligini, ahamiyat kasb etuvchi tasodiflarni ta olish shartini qoʻyadigan yondashuv					
Germenevtik yondashuv	Faoliyatni ta'lim oluvchining kechinmalari uning xotiralari or					
Psixoterapevtik yondashuv	Art-terapiya va uning turlari, hayotiy muammolarni hal etishning maxsus tashkillashtirilgan shakliga asoslangan yondashuv					
Akmeologik yondashuv	Shaxsni shakllantirishga qaratilgan, ya'ni ilmiy tartib bilan ilmiy o'zlashtirishga asoslangan yondashuv					
Kognitiv-pragmatik yondashuv	Ta'limni inson omili bilan bogʻlab oʻrgatadigan, individuallik, insonparvarlik, foydalilik, oʻz-oʻzini namoyon etishga asoslangan yondashuv					

Oliy oʻquv yurtlarining filologiya va tillarni oʻqitish (oʻzbek tili) ta'lim mutaxassisligi yoʻnalishida oʻqitiladigan "Ona tili oʻqitish metodikasi" fani, garchand, pedagogik sikldagi fanlardan sanalsa-da, uning ilmiy asosini tilshunoslik fanlari tashkil etadi. Til ta'limi sohasida qoʻlga kiritilgan har bir ilmiy yutuq ona tili kursining mazmuniga ta'sir koʻrsatadi va uni doimiy yangilab turish ehtiyojini ham yuzaga keltiradi.

Bu borada salmoqli ilmiy-amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, koʻpchilik oʻqituvchilar hali-hanuz kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini oʻzlashtira olmadi. Har yili yuqori samaradorlikka

erishishga e'tibor qaratiladi, o'quv dasturlari ishlab chiqiladi, yangi o'quv darsliklari yaratiladi.

Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olgʻa intilishga boʻlgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning oʻquvbilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi. Biroq oʻquv yilining oxirida kelib oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fanlarni oʻzlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti.

Mamlakatimizda pedagogika fani orgali yoshlarda mutaxassislik tadqiqotchilik koʻnikmalarini shakllantirishning turli jihatlariga katta e'tibor qaratilsa-da, yangi kognitiv-pragmatik yondashuv asosida rivojlantirilgan yetuk shaxsni shakllantirish masalasida amalga oshirilishi zarur boʻlgan jihatlar mavjud. Kognitiv-pragmatik yondashuv jarayonida talabalar mustaqil faoliyatini tashkil shakllantirish va rivojlantirishda interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar hamda AKT imkoniyatlaridan toʻgʻri va toʻliq foydalanish magsadida shakllanadigan kompetensiyalar va rejalashtiriladigan natijalarining quyidagi tarzda roʻyxatini tuzdik (Qarang:1.2-jadval):

"1.2-jadval." Kompetensiyalar va rejalashtirilgan oʻqitish natijalari


T/r	Kompetensiyalar	Rejalashtiriladigan oʻqitish natijalari				
1.	Olingan nazariy bilimlar asosida til ta'limidagi metodlarni tanqidiy baholay olish	Bilishi va bajara olishi kerak: olingan nazariy bilimlar asosida til ta'limidagi metodlarni tanqidiy baholay oladi. Qoʻllay olishi kerak: olingan nazariy bilimlarni til ta'limida qoʻllaydi.				
2.	Til oʻqitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari va samarador-ligini belgilovchi omillarni tahlil qila olish	Bajara olishi kerak: til oʻqitish metodikasining ilmiy-nazariy asoslari va samaradorligini belgilovchi omillarni tahlil qila oladi.				
3	Til ta'limini samarali tashkil etish malakasiga ega bo'lish	Bajara olishi kerak: til ta'limini samarali tashkil etish malakasiga ega bo'ladi.				

Oʻqitishdagi turli yondashuvlar borasida olib borilgan ishlar tahlili koʻrsatadiki, davr taqozo etayotgan yangi talablar bugungi kunda jahonning qator til ilmi ta'limida mustaqil ilmiy paradigma sifatida shakllanib ulgurgan, kognitiv-pragmatik tilshunoslik yoʻnalishlari bilan tanishtirish asnosida tilshunoslikda qoʻlga kiritilgan eng soʻnggi yutuqlar, til hodisalarini inson omili bilan bogʻlab oʻrganadigan kognitiv-pragmatik yondashuv tamoyillari va texnologiyalari borasida oliygohlarda ona tili ta'limidan saboq beruvchi professor-oʻqituvchilar va talabalarga uning tamoyili, mohiyati, afzalliklari haqida ma'lumot berish ehtiyojini tugʻdirdi.

Filologik fanlarning oliy ta'limdagi o'rni uning ma'rifiy, tarbiyaviy, kommunikativ jihatlariga bog'liqki, bunda nutq va yozuv faqat ma'lumot berib qolmay shaxsni insoniylashtiradi, ijtimoiylashtiradi. Zotan, bugungi kunda talaba-

yoshlar kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kognitiv-pragmatik yondashuv asosidagi pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish dolzarb masalalardan boʻlib qolmoqda.

Ikkinchi bob "Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirishning shakl, usul va vositalari" deb kognitiv-pragmatik nomlanib, talabalarda kompetentlikni texnologiyalar asosida rivojlantirishda ilgʻor tajribalardan foydalanish; talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologivalar rivojlantirishning shakl va vositalari; verbal, koʻrgazmali, texnik va didaktik vositalarning kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirishdagi oʻrni kabi masalalari yoritilgan. Ta'lim-tarbiya jarayonida integratsiyalashgan texnologiyalarni qoʻllash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratizatsiyalashni amalga oshirmay turib qoʻllangan har qanday texnologiya kutilgan samara bermaydi. Bizningcha, kognitiv-pragmatik yondashuvga asoslangan darslar quyidagi tuzilishga ega bo'ladi (Qarang:2.1rasm):




"2.1-rasm." Kognitiv-pragmatik yondashuvga asoslangan mashgʻulot tuzilmasi

"Ona tili oʻqitish metodikasi" fani boshlangʻich ta'lim yoʻnalishidagi 3-kurs bakalavriat yoʻnalishida tahsil olayotgan talabalar uchun moʻljallangan boʻlib, uning namunaviy va ishchi oʻquv rejalarida oʻrta umumiy ta'lim maktablarida "Ona tili" oʻquv predmetidan dars beradigan oʻqituvchilarni tayyorlashni maqsad qilgan. Shuni e'tiborga olib tadqiqotimiz davomida asosiy e'tiborni boʻlajak ona tili oʻqituvchilarini ona tili oʻqitish metodikasi fanini kognitiv-pragmatik yondashuv asosida tashkil qilib, fan boʻyicha bazaviy bilim, malaka va koʻnikmalar bilan qurollantirishni maqsad qildik. Mazkur fan ma'ruzalarining 2-mavzusi "Oʻqitishdagi yondashuvlar", 4-mavzu "Til ta'limi muhitini yaratish", 7-mavzu "5- 6-, 7-, 8-sinflarda ona tili darslarini tashkil qilish metodikasi", 8-mavzu

"9-, 10-, 11-sinflarda ona tili darslarini tashkil qilish metodikasi" mavzularida; amaliy mashgʻulotning 3-mavzusi "Ona tili oʻqituvchisi va unga qoʻyiladigan talablar", 4-mavzu "Til oʻqitishga yondashuvlarning ona tiliga xoslanganligi", 9-mavzu "Ona tili ta'limi orqali oʻquvchilarning tayanch, lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari"; seminar mashgʻulotining 3-mavzusi "Oʻzbek tilini oʻqitishga doir yondashuv va tamoyillar", 5-mavzu "Til oʻqitishda grammatik yondashuv" mavzularida kognitiv-pragmatik yondashuvnini tatbiq etish mumkinligini tajribadan oʻtkazdik. Kognitiv-pragmatik yondashuv asosida talabalarga insonparvarlik tarbiyasini berish hamda nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyani rivojlantirish maqsadida interfaol usullar qoʻllandi. Ayniqsa, insonparvarlik mazmunidagi matn tahliliga kognitiv-pragmatik nuqtayi nazardan yondashish quyidagi masalalarni hal etishga yordam berdi: matnni idrok qilish va tushunishda germenevtik tamoyillarni qoʻllash; badiiy matnning semantik, struktur va mantiqiy tiplarini aniqlash; matnning leksik, sintaktik-semantik va pragmatik xususiyatlari reallashuvida shaxs rolini ochib berish masalasiga e'tibor qaratiladi.

Keys-stadi (inglizcha sase – toʻplam, aniq vaziyat; stady – ta'lim) keysda bayon qilingan va talabalarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yoʻnaltiradigan aniq, real yoki sun'iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim usuli ekanligi ma'lum. Pedagogik keyslarni mazmuni, qamroviga koʻra: mikrokeys, minikeys, umumiy keyslarga; qoʻyilgan maqsadga koʻra taktik, strategik keyslar va muammoli vaziyatning real yuz berganiga koʻra real voqelikka asoslangan va voqelik imitatsiya qilingan turlarga boʻldik (Qarang:2.2-rasm):



"2.2-rasm." Kognitiv-pragmatik yondashuv jarayonidagi pedagogik keyslarning turlari

Pedagogik keys ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan aniq muammoli vaziyatning tafsiloti bo'lganligi sababli keys usulida pedagogik muammolarni amaliy va seminar mashg'ulotlarda tahlil qildik. Pedagogik keyslardan ta'lim jarayonida foydalanish bo'lg'usi ona tili o'qituvchilari shaxsida quyidagi kasbiy-pedagogik zaruriy sifatlarni shakllantiradi: mustaqil, ijodiy fikrlash qobiliyatini

rivojlantiradi; nazariya va amaliyot oʻrtasida uzviy bogʻliklikni ta'minlaydi, muammoli vaziyatni yangicha shakllantirishga yordam beradi, vaziyatlarni hal etishda unga ta'sir etuvchi omillarning ta'sirini e'tiborga olishga imkon beradi, boshqalar fikrini ham qabul qila olish malakasini shakllantiradi, savol berish madaniyatini tarkib toptiradi, mas'ullik hissini tarbiyalaydi.

Oʻquv mashgʻulotlarida keyslarni hal qilish algoritmi quyidagicha boʻldi: topshiriqni berish va uni bajarish muddatini belgilash, keysning yechimini baholash tizimi bilan tanishtirish, darsning texnologik modelini aniqlash;

oʻqituvchining kirish soʻzi, asosiy savollarning qoʻyilishi; talabalarni iborat mikroguruhlarga ajratish;

ularning faoliyatini tashkil qilish; javoblar bilan tanishishini tashkil qilish; mikroguruhlararo munozarani tashkil qilish;

oʻqituvchining umumlashtiruvchi soʻzi, uning pedagogik vaziyat yechimi toʻgʻrisidagi fikri;

ekspertlar tomonidan baholanishi; talabalarning mashgʻulot haqidagi fikrlari; oʻqituvchining yakunlovchi soʻzi; mashgʻulot boʻyicha xulosalar chiqarish.

Keyslarni hal qilishda yozma usulda tahlil qilish unda bayon etilgan muammoni yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Kognitiv-pragmatik yondashuv asosida ona tili oʻqituvchilarida kasbiy-ma'naviy fazilatlarni tarbiyalashda quyidagi mexanizm asosida ish olib borish maqsadga erishish omili boʻla oladi (Qarang:2.3-rasm):



"2.3-rasm." Kognitiv-pragmatik yondashuv asosida boʻlajak oʻqituvchilarni kasbiy-ma'naviy tarbiyalash mexanizmi

Kognitiv-pragmatik yondashuvga yoʻnaltirilgan ta'lim va uni amalga oshirishda raqamli ta'lim vositalari katta imkoniyatlarga ega. Verbal, koʻrgazmali, texnik va didaktik ta'lim vositalaridan kognitiv-pragmatik yondashuv jarayonida unumli foydalanish yuzasidan hosil qilingan bilim, koʻnikma, malakalar pedagogik faoliyatda mashgʻulotlarni samarali tashkil etishda qoʻl keladi.

"Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli rivojlantirishning metodik texnologiyalar asosida imkoniyatlari" deb nomlangan uchinchi bobda til hodisalarini kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida o'qitishda o'qituvchi faoliyati mazmuni, Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida mexanizmi. talabalarda kognitiv-pragmatik rivojlantirish kompetentlikni muammoli texnologiyalar asosida rivojlantirishning pedagogik modeli tahlil qilindi.

Kognitiv-pragmatik yondashuv jarayonida ona tili oʻqituvchisi shaxsiga jamiyat ijtimoiy hayotida roʻy berayotgan oʻzgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetish va bu borada talabalarga toʻgʻri, asosli ma'lumotlarni bera olish;

ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari, yutuqlaridan muntazam xabardor boʻlish;

o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lish, o'z ustida tinimsiz izlanish;

husnixat bilan yoza olish malakasiga ega boʻlish; adabiy til qoidalarini yaxshi bilish, sheva ta'sirini nazarda tutish;

ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega boʻlish;

pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish;

ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish;

yuksak darajadagi pedagogik mahorat, ya'ni kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika qoidalari chuqur o'zlashtirib olish kabi talablar qo'yiladi.

Pedagogik faoliyatda muallim har bir talabaning qadr-qimmatini inson sifatida hurmat qilishi, talabaga nisbatan ishonch, bilimini baholashda talabchan, adolatli boʻlish, ularda oʻz-oʻziga nisbatan tanqidiy munosabatni oʻstirish, mehribon, gʻamxoʻr boʻlishi, mushkul vaziyatga tushib qolganda unga koʻmaklashish, jamoaning fikr-mulohazalarini e'tiborga olish, ularga ishonch bilan qarash, talaba bilan muomala va munosabatlarda ularning har biriga alohida yondashish, pedagogik taktni saqlash muhim hisoblanadi.

Modulli ta'lim texnologiyasida ta'lim jarayonini modullar asosida loyihalashtirish nazarda tutiladi. Modullar bilan ishlash yakunidagi natija esa ya'ni talaba egallagan bilim, koʻnikma, malaka va shaxslik sifatlari mazkur maqsadga erishilganlik darajasini koʻrsatadi. Quyidagi qiyosiy tahlildan ham ma'lum boʻlyaptiki, texnologik ta'limda ham, tadqiqiy-ijodiy ta'limda ham, ayniqsa, modulli ta'limda oʻqituvchining e'tibori koʻproq ta'lim oluvchiga, uning oʻz ustida mustaqil ishlashi hamda oʻz-oʻzini nazorat qilishga qaratiladi (Qarang: 3.1-jadval):

"3.1-jadval." Ta'limga kognitiv-pragmatik yondashuvning qiyosiy tavsifi


Mezonlar	Koʻrgazmali an'anaviy ta'lim	Texnologik ta'lim	Tadqiqiy-ijodiy ta'lim	Modulli ta'lim
Oʻqituv- chining roli	Oʻqituvchi bilim beruvchi.	Oʻquv jarayonini tizimli yondashuvdan foydalangan holda loyihalash va uni amalga oshirishga qaratiladi.	Diqqat ta'lim oluvchining turli variantlarni baholash, qaror qabul qilish, muammolarni yechishiga qaratiladi.	E'tibor koʻproq ta'lim oluvchiga, uning oʻz ustida mustaqil ishlashi hamda oʻz-oʻzini nazorat qilishiga qaratiladi.
Oʻquv maq- sadining qoʻyilishi	Oʻquv maqsad- vazifalari doimo aniq qoʻyila bermaydi.	Koʻzlanayotgan natijaga koʻra maksimal darajada oʻquv maqsadlari aniq boʻladi.	Oʻquv jarayonidan qoʻyilgan maqsad- ni izlanish, tadqiqot oʻtkazish tarzida tashkil qilinadi.	Har bir mavzu, ta'limning maqsadiga koʻra alohida birlik modullarni izchil holda chuqur oʻzlashtirish
Maqsadga erishish uchun harakat	Tayyor bilimlar bayon qilinadi.	Oʻqitish talabalarning faol qatnashishi orqali amalga oshiriladi.	Ma'lumotlar to'planadi, gipoteza vafarazlarni ilgari suriladi, tekshiriladi.	Ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlashini ta'minlash va nazorat qilish, baholash orqali amalga oshiriladi.
Ta'lim berish ning oʻquv metodlari	Bayon qilish, hikoya, tushuntirish, reproduktiv metodlar	Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar qoʻllaniladi, vaziyatgakoʻra tuzatishlar kiritish mumkin.	Talabalarning shaxsiy tashabbusi, yangi bilimlarni mustaqil oʻrganishlarini qoʻllovchi metodlar	Maqsadni amalga oshirish samara- dorligini ta'min lovchi metodlarni tanlash va moslashtirish.
Talaba- ning bilim olishini ta'minlash	Axborotlarni toʻplash, xotirada saqlab qolish, mustahkamlashga doimo undash	Talabaning faolligini ta'minlash, mustaqil oʻqishga oʻrgatish	Mustaqil, tahliliy fikrlash faoliyati yuz berishi uchun muhit yaratish, oʻz ustida muntazam ishlash	Oʻz ustida mustaqil muntazam ishlash, ijodiy izlanish uchun qulay muhit yaratish
Dars jarayoni algoritmi	Mashgʻulotlar akademik xarakterga ega boʻlib, boʻlgʻusi mutaxassislik faoliyati bilan yetarlicha bogʻlanmagan.	Qoʻyilgan maqsadga erishish uchun bajariladigan amallarni rejalashtirish va ma'lum ketma- ketlikda amalga oshirish	Ta'limda hamkorlik qilish, eksperiment, tajriba-sinov o'tkazish, modellashtirish asosida dars jarayonini loyihalashtirish	Mavzu va modul boʻyicha topshiriqlar ishlab chiqish, ularni bajarishni loyihalashtirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish
Erishiladi- gan natija	Mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish koʻnikmasi rivojlanishiga imkon yaratilmaydi.	Rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishish	Tahliliy, tanqidiy, ijodiy fikrlay bilish	Minimal darajada qanday natijaga erishishni aniq belgilash. Qoʻyilgan maqsadga kafolatli erishish

Modelning natijadorlik bloki kasbiy tayyorgarlik jarayonida boʻlajak ona tili oʻqituvchilarida kasbiy-ma'naviy fazilatlar rivojlanganligining majmuaviy aniqlash mezoni va baholash koʻrsatkichlarini oʻz ichiga oladi.

Oʻqituvchining kognitiv-pragmatik yondashuvi quyidagi asosiy funktsiyalar bilan izohlanadi: kasbiy faoliyatining ongli tahlili; tanqidiy yondashuv; kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik; ijodiy yaratuvchilik munosabatida boʻlish; oʻz

imkoniyatlarini roʻyobga chiqarish, oʻz turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatda mujassamlash.

Tadqiqot doirasida kognitiv-pragmatik yondashuv asosida ona tili ta'limi mutaxassislari kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik modeli ishlab chiqildi (Qarang:3.1-rasm):



"3.1-rasm." Boʻlajak ona tili oʻqituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish modeli

Tadqiqotimiz davomida yuqoridagi fikrlarga tayangan holda "Ona tili o'qitish metodikasi" fani bo'yicha modul ishlab chiqdik. Mazkur fan bo'yicha modul ishlab chiqishda quyidagi bosqichlarga bo'ldik:

I bosqich: "Ona tili oʻqitish metodikasi" fanining oʻquv rejasidagi makromodulga kiruvchi fanlarning oʻquv dasturlari orasidagi oʻzaro bogʻliqligini oʻrganish.

II bosqich: "Ona tili o'qitish metodikasi" fanining modulini tuzish.

III bosqich: Modulning ma'ruza matnini yaratish.

IV bosqich: Modulning oʻquv-koʻrgazma qurollari, tarqatma materiali, taqdimot-slaydlarini ishlab chiqish.

V bosqich: Modullarga ajratib oʻqitish tamoyillari asosida oʻqitish texnologiyasini loyihalash, ya'ni texnologik xarita ishlab chiqish.

VI bosqichda bir vaqtning oʻzida oʻrgatilayotgan fanning soatlari sonini hisobga olib, mashgʻulot jadvalini tuzish.

VII bosqich: Modul boʻyicha talabalar bilimini nazorat qilish uchun testlar, individual va mustaqil ishlar uchun topshiriqlar, oʻquv-metodik, oʻquv-ilmiy adabiyotlar roʻyxatini tayyorlash.

VIII bosqich: Modul uchun tarqatma va tasvirli materiallar toʻplami tuzish va ularni mashgʻulotdan oldin berish. Tavsiya qilinadigan adabiyotlar roʻyxati bilan ta'minlash.

Dissertatsiyaning "Pedagogik tajriba-sinovning tashkil etilishi va samaradorligi" deb nomlangan toʻrtinchi bobida pedagogik tajriba-sinov tashkil etilishining maqsadi va vazifalari, pedagogik tajriba-sinovlarni tashkillashtirish va ularning samaradorlik koʻrsatkichlari tahlili koʻrsatib oʻtilgan.

Tadqiqot davomida "Ona tili oʻqitish metodikasi" fanidan mustaqil ta'lim dasturi asosida tajriba-sinov ishlarini olib bordik hamda talabalarning ilmiy-pedagogik faoliyatini ham kognitiv-pragmatik yondashuv asosida tashkil etishga erishdik. Boʻlajak ona tili oʻqituvchilariga kognitiv-pragmatik yondashuv natijasida kasbiy-ma'naviy fazilatlarning rivojlanganligini baholash mezonlari, koʻrsatkichlari, darajalari boʻyicha uch bosqichda tajriba guruhlarida darslar 2021-2022-yillarda olib borildi.

Eksperimentning **birinchi bosqichi** (2022-2023-yillar) da ilmiy-pedagogik va ilmiy-metodik adabiyotlar oʻrganildi hamda tahlil etildi. Bunda til sathlari boʻyicha mavzuni pragmatik aspektda oʻrganishda, tushunish va tushuntirishda muammolar mavjudligi namoyon boʻldi. Aksar hollarda mavzularni oʻrganish jarayonida grammatizmga berilish ustunligi kuzatildi. Talabalar ham ona tili darslarini qoidalar yigʻindisidan iborat mashgʻulot sifatida qabul qilishga odatlanganlar. Oʻqituvchilarning bevosita oʻz kasbiy faoliyatiga aloqador kompetensiya va kompetentlik borasidagi tushunchalari, zamonaviy yondashuvlar borasidagi qarashlari ham sayozligi aniqlandi.

Ikkinchi bosqichda (2023-2024-yillar) ishlab chiqilgan metodika eksperimental sharoitda sinovdan oʻtkazildi; natijalar qayd qilib borildi. Tadqiqot ishimizning ikkinchi bobida bayon etilgan nazariy bilimlarni shakllantirish, nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyani kognitiv-pragmatik yondashuv asosida rivojlantirish usullarini tahlil va idrok qilish, amaliy qoʻllash yuzasidan berilgan tavsiyalarga asos boʻlgan natijalar yuzaga keldi, bilim va tajribalar toʻplandi.

Kognitiv-pragmatik yondashuvga oid ish usullari ishlab chiqilib, ular ma'ruza va amaliy mashgʻulotlarda qoʻllandi. Kuzatish, savolnomalar, pedagogik keyslar hamda testlar asosida bilim darajalari oʻrganildi. Boʻlgʻusi oʻqituvchi talabaning pedagog sifatida rivojlanish istiqbolini belgilashda va shu asosda oliy ta'limda kognitiv-pragmatik yondashuv asosida amalga oshirishni oʻrganish boʻyicha yillik oʻsish nazorat guruhlariga qaraganda tajriba guruhlarida Buxoro davlat universitetida 24%, Urganch davlat universitetida 30%, Qarshi davlat universitetida 28%, Samarqand davlat universitetida 26 % ni tashkil etdi.

Tajriba-sinov ishlarimizning **uchinchi bosqichi** 2024-yildan keyin amalga oshirildi. U umumlashtirish, xulosalash, olingan natijalarni amaliyotga keng tatbiq qilish bosqichlari boʻldi. Yakuniy nazorat ogʻzaki savol-javob, oʻqituvchi va talabalarning zamonaviy oʻqitish usullarini bilishi, pedagogik keyslar asosida oʻtkazildi. Talabalardan olingan oʻqitish usullari sharhi, pedagogik keyslar, video jarayonlar yakuniy eksperiment natijalari boʻldi. Eksperiment tajriba-sinov ishlarining boshi va oxirida, maxsus modul oʻrganilgandan keyin ham oʻtkazildi. Erishilgan natijalar matematik tahlildan oʻtkazildi va qiyoslandi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari uchun ishtirokchilar soni reprezentativ tanlash tamoyili asosida olindi. Ya'ni tajribada ishtirok etgan ishtirokchilar soni tanlanmalar hajmining minimal talablarini qondiradi. Tajriba-sinov ishlari ta'kidlovchi va shakllantiruvchi bosqichlarda tashkil etildi (Qarang: 4.1-jadval):

"4.1-jadval." Kognitiv-pragmatik yondashuv natijasida talabalarda kasbiyma'naviy fazilatlar rivojlanganligini baholash mezonlari, ko'rsatkichlari, darajalari

Baholash mezonlari	Koʻrsatkichlar	Darajalar
Intellektual rivojlanish va oʻzini namoyon qilish uchun motivatsiya oladi. Nazariy bilim	Intellektual va oʻz-oʻzini rivojlan- tirishga e'tibor qaratish	Yaratish (dastlabki)
va kompetentlik sifatlariga egalikni namoyon qilishda oʻquv dasturi talablarini bajarishga	Yangi bilim va pedagogik tajriba olishga ochiqlik	Tayyorlash (past)
intiladi, aksariyat holatlarda xatolarga yoʻl qoʻyadi.	Intellektual rivoj lanish yoʻnalishi boʻyicha stimullarga moyillik	reproduktiv
Pedagogik muammolarni hal qilishda faollik qobiliyatini, nazariy bilim va kompetentlik	Pedagogik muammo- larni hal qilishdagi bilim va tajriba	
sifatlariga egalikni oʻquv dasturi talablariga	Mantiqiy fikrlash	Moslashuvchanlik
muvofiq namoyon qila oladi, namunali dars ishlanmalari asosida belgilangan talabga koʻra sifatli yarata oladi, yangi texnologiyalar asosida loyihalar yaratishda ba'zan qiyinchiliklarga duch keladi.	Oʻz-oʻzini tartibga solishi	faol (oʻrta) <b>produktiv</b>
Pedagogik muammolarni hal qilishda faollik	Pedagogik jarayonda-gi ijodiy	
qobiliyatini, nazariy bilim va nutqiy,	faoliyat;	Pedagogik
lingvistik, pragmatik kompetentlik sifatlariga	Mustaqil ijodiy-ilmiy izlanish	kompetensiya
egalikni toʻla namoyon qila oladi. Pedagogik rivojlanish jarayonida ijodiy qobiliyatlarini koʻrsata oladi. Berilgan loyihalarga korporativ moslashish qobiliyati namoyon boʻladi	Nutqiy, lingvistik, pragmatik kompetensiyalarning oʻsishi. Talab darajasidagi mukammallik	ijodiy (yuqori) <b>kreativ</b>

Ona tili ta'limi texnologiyalarini kognitiv-pragmatik yondashuv asosida rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov jarayonida 903 talaba qatnashdi. Nazorat guruhlarida jami 452, tajriba guruhlarida esa 451 talaba tajriba-sinov ishlarida qatnashdi. Jadvaldagi natijalar tahlil qilinib, sinov va nazorat guruhlari taqqoslandi (Qarang: 4.2-jadval):

"4.2-jadval." Samaradorlik darajasini aniqlashga qaratilgan tajriba va nazorat guruhlaridagi ma'lumotlarning solishtirma jadvali


uhi	Tajriba va sinov obyektlari	Ijodiy (yuqori)- kreativ	Faol (oʻrta)- produktiv	Dastlabki (past)- reproduktiv	Jami
guruhi	Buxoro davlat universiteti	57	43	11	115
Tajriba	Urganch davlat universiteti	56	46	10	110
Taj	Qarshi davlat universiteti	58	45	10	117
	Samarqand davlat universiteti	59	46	10	109
	Jami	230	180	41	451
guruhi	Tajriba va sinov obyektlari	Ijodiy (yuqori)- kreativ	Faol (oʻrta)- produktiv	Dastlabki (past)- reproduktiv	Jami
	Buxoro davlat universiteti	30	41	38	110
Nazorat	Urganch davlat universiteti	33	40	40	115
Naz	Qarshi davlat universiteti	31	43	39	113
	Samarqand davlat universiteti	33	43	41	114
	Jami	127	167	158	452

Yuqoridagi jadvallardan koʻrinadiki, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarda nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan bilim, koʻnikma va malakalar samarali shakllanishida sezilarli oʻzgarishlar kuzatilgan. Mazkur jadvallar asosida boʻlajak ona tili oʻqituvchilarinig kasbiy kompetensiyalarini kognitiv-pragmatik yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi yuzasidan oʻtkazilgan tadqiqot boʻyicha yakuniy bosqich natijalarining qiyosiy tahlili keltirilgan (Qarang: 4.3-jadval):

"4.3-jadval." Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini kognitiv-pragmatik yondashuv asosida rivojlantirish yuzasidan oʻtkazilgan tadqiqot boʻyicha qiyosiy tahlil

	Toloho	Oʻzlashtirish natijalari (% da)				
Guruhlar	Talaba- lar soni	Ijodiy (yuqori) kreativ	Faol (oʻrta)- produktiv	Dastlabki (past)- reproduktiv		
Tajriba guruhi	451	230 51	180 40	41 9		
Nazorat guruhi	452	127 28	167 37	158		

Tajriba-sinov natijalari tahliliga koʻra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarda nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan bilim, koʻnikma va malakalar samarali shakllanganligi aniqlandi. Bu diagrammada quyidagi koʻrinishni oldi (Qarang:4.1-rasm):



"4.1-rasm." Talabalarning kognitiv-pragmatik yondashuv asosida kasbiy kompetensiyalari rivojlanganlik darajalari diagrammasi

Diagrammadan koʻrinadiki, tajriba guruhidagi talabalarning oʻzlashtirish koʻrsatkichlari, nazorat guruhidagi talabalar koʻrsatkichlaridan yuqori ekan. Ushbu natijalarga asoslangan holda ona tili ta'limiga kognitiv-pragmatik yondashuv tamoyillari va texnologiyalari boʻyicha bakalavr va magistratura talabalarining kasbiy kompetensiyalarini kognitiv-pragmatik yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi yuzasidan oʻtkazilgan tadqiqot natijalari matematik-statistik tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun oʻrta qiymatlar, tanlanma dispersiya, variatsiya koʻrsatkichlari, Styudentning tanlanma mezoni, Styudent mezoni asosida erkinlik darajasi, Pirsonning muvofiqlik mezoni va ishonchli chetlanishlari topildi (Qarang:4.4-jadval):

"4.4-jadval." Kognitiv-pragmatik yondashuv tamoyillari va texnologiyalari bo'yicha tajriba-sinov ishlarining statistik ko'rsatkichlari

$\overline{X}$	$\overline{Y}$	$S_x^2$	$S_y^2$	$C_x$	$C_{y}$	$T_{x,y}$	K	$X_{n,m}^2$	$\Delta_x$	$\Delta_y$
2,41	1,88	0,4019	0,6056	1,44	2,28	10,6	656	89,09	0,07	0,0
2,42	1,93	0,4236	0,6251	1,26	1,93	9,8	901	98,99	0,06	0,07

Boʻlajak ona tili oʻqituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini kognitivpragmatik yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi yuzasidan oʻtkazilgan tajriba-sinov ishlarining sifat koʻrsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma'lum  $\overline{X}$  =2,42;  $\overline{Y}$  =1,93;  $\Delta_x$  = 0,06;  $\Delta_y$  = 0,07 ga teng. Bundan sifat ko'rsatkichlari: o'qitish samaradorligi ko'rsatkichi quyidagicha

aniqlanadi: 
$$K_{yc\delta} = \frac{(\overline{X} - \Delta_x)}{(\overline{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,42 - 0,06}{1,93 + 0,07} = \frac{2,36}{2,00} = 1,18 > 1;$$

Bilish darajasi koʻrsatkichi esa, quyidagicha aniqlanadi:  $K_{\delta\delta\delta}=(\overline{X}-\Delta_x)-(\overline{Y}-\Delta_y)=(2,42-0,06)-(1,93-0,07)=2,36-1,86=0,50>0;$ 

Olingan natijalardan ona tili ta'limiga kognitiv-pragmatik yondashuv texnologiyalari boʻyicha oʻqitish samaradorligini baholash mezonining birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezonining noldan kattaligi orqali koʻrish mumkin.

Demak, tadqiqot natijalari boʻyicha oʻtkazilgan va dissertatsiyada keltirilgan statistik tahlillar ona tili ta'limiga kognitiv-pragmatik yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyalari boʻyicha tajriba-sinov ishlari samaradorligi

samaradorligi 1,57 % ga oshganligi bizning koʻzlagan maqsadimiz tasdiqlanganini koʻrsatadi. Amalga oshirilgan statistik tahlillardan xulosa shuki, tajriba guruhlaridagi talabalarda kognitiv-pragmatik yondashuv jarayonida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda ijobiy natijalarga erishilgan.

#### **XULOSA**

- 1. XX asr soʻngida tilshunoslik ilmiy paradigmasiga "til sohibi" kategoriyasining kiritilishi bugungi kunda kognitiv lingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, etnolingvistika kabi inson fenomeni muammolari bilan shugʻullanuvchi lingvistik yoʻnalishlarning shakllanishiga olib keldi. Tilni oʻrganishga bu jihatdan yondashuv jahon tilshunosligida antropotsentrizm gʻoyalarining keng yoyilishiga turtki berdi.
- 2. Hozirgi vaqtda dunyo ilmida sotsial antropologiya, ya'ni ijtimoiy antropologiya, bu boradagi tadiqotlar markaziga insonni qo'yish orqali jamiyatda insonning o'rnini o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida ona tili ta'limi sifatini oshirish borasidagi ilmiy izlanishlar tahlili ko'rsatdiki, jamiyatda insonning o'rnini o'rganish va buning markaziga insonni qo'yish, xususan, pedagogik jarayonda, aynan insonparvarlik talab qilinadigan ona tili ta'limida kognitiv-pragmatik yondashuvlarga doir tadqiqotlarga e'tibor qaratish zarur.
- 3. Filologik fanlarning oliy ta'limdagi o'rni uning ma'rifiy, tarbiyaviy, kommunikativ jihatlariga bog'liq, chunki nutq va yozuv faqat ma'lumot berib qolmay, shaxsni insoniylashtiradi, ijtimoiylashtiradi.
- 4. Hozirda insoniyat mutlaqo oʻzgacha muhit, yangicha talab va avvallari kuzatilmagan xavf-xatar hamda tahdidlar kuchaygan bir sharoitda yashashiga to'g'ri kelmoqda. Dunyo miqyosida shiddat bilan kechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, til siyosati va lisoniy vaziyatlarga ham jiddiy ta'sir o'tkazadi. Ona tilimizning xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzini oshirish maqsadida boshqa xalqlar tillari bilan aloqalarni tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy faoliyatga yanada keng yo'l ochib berishni, uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida olib boriladigan ona tilimizning mavqeyini ko'taradigan madaniyma'rifiy tadbirlarni ommalashtirishni; til birliklarini inson omili bilan bog'liq tahlil qilishni, ona tili ta'limini kognitiv-pragmatik yondashuv texnologiyalari asosida o'qitishni hayotning o'zi taqozo etmoqda.
- 5. Yurtimizda faoliyat koʻrsatayotgan oliy oʻquv yurtlarining maqsadi har tomonlama rivojlangan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiluvchi, xalq an'analarini boyituvchi va mustahkamlovchi, Vatanimiz kelajagi uchun vijdonan va halol mehnat qiluvchi professional kadrlar tayyorlash ekan, oʻsib kelayotgan yoshlarga erishilajak natijaning asosida qattiq mehnat yotishini, bunga qunt bilan erishilishini, oʻz navbatida, bular halollik, kamtarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik zaminida boʻlsa, muvaffaqiyatlar barqaror boʻlishini mudom tushuntirib, shaxsiy namuna boʻlib borish lozim.
- 6. Ona tili ta'limi jarayonida grammatik tushunchalarni hosil qilish bilan kifoyalanilishi aksariyat oʻrinlarda kutilgan natijani bera olmasligi kuzatiladi. Amaldagi reyting tizimi talablariga koʻra talabalar bilimini baholashning qulay usuli sifatida test sinovi koʻp qoʻllanilishi tufayli yozma ishlarga e'tibor susaygan.

Talabalarning yozma va ogʻzaki nutqini rivojlantirish uchun matn ustida ishlash, bayon, insho yozishga oʻrgatish, ijodiy topshiriqlar berish, ilmiy uslubda berilgan matnlarni badiiy uslubga aylantirib yozish kabi bir qancha koʻrinishdagi topshiriqlarni mustaqil bajarish jarayonlarini takomillashtirish zarur.

- 7. Bugungi kunda mamlakat oliy oʻquv yurtlariga kirish imtihonlari testlar asosida amalga oshirilmoqda. Filologik yoʻnalishdagi yoshlarimiz mavzuni anglab, mohiyatiga yetishdan koʻra savollarni yod olishni afzal bilishmoqda. Natijada yoshlarimizning ogʻzaki va yozma nutqi pasaydi. Koʻpchiligining yozma savodxonligi va nutqiy koʻnikmalari susayib, oddiy bitta jumlani ham talab me'yorlarida toʻgʻri gapirish va yozishni bilmay qolmoqdalar. Savodli yoza olishida, husnixatida jiddiy muammolar vujudga kelmoqda. Yuqorida koʻrsatilgan yozma nazorat ishlarining toʻgʻri yoʻlga qoʻyilishi mazkur masala yechimi boʻla oladi.
- 8. Oliy ta'limda masofaviy ta'lim platformasi orqali ta'lim jarayonlari ishga tushirilgan ekan, internet texnologiyalarning tarbiyaviy jihatlariga ham e'tiborni qaratish, ta'limda ijtimoiy-sotsial pedagogikani rivojlantirish lozim. Dunyo ilmida sotsial antropologiya, ya'ni ijtimoiy antropologiya, jamiyatdagi insonning o'rnini o'rganish va buning markaziga insonni qo'yishga katta e'tibor qaratilayotgan ekan, filologik fanlarni o'qitishda dunyodagi mazkur yo'nalishlar o'qitish tizimiga oid tajribalar va yangi yutuqlarni muttasil o'zlashtirib borish shart hisoblanadi.
- 9. Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida tashkil qilingan darslarda o'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi sifatida faoliyat olib borar ekan, o'qituvchi-talaba hamkorligidagi ta'lim jarayonida insonparvarlik tarbiyasini berish imkoniyatidan unumli foydalanish zarur. Bunday darslar markazida umumlashtirilgan, tizimlashtirilgan holdagi insoniylik singdirilgan o'quv topshiriqlari, savollar turishiga e'tibor qaratish, ular vositasidagi didaktik tahlil va umumlashtirish (analiz va sintez) o'quvchilarni mustaqil izlanishga, fikrlashga, qaror qabul qilishga yo'llaydi.
- 10. Kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyasi til ta'limi oldiga talabalarda nutqiy, lingvistik, kreativ va pragmalingvistik singari kompetensiyalarni shakllantirish maqsadini qo'yadi. Pragmatik kommunikativ kompetensiya muloqot jarayoni ishtirokchilari bo'lmish kommunikant va kommunikatning millati, yoshi, ijtimoiy roli (mavqeyi), jinsi kabi omillarni hisobga olgan holda muloqot madaniyatiga rioya qilishidir.
- 11. Kompetensiyaviylikka asoslangan til ta'limida pragmatik kompetensiyaning oʻrni va ahamiyatini asoslash, insonparvarlik singdirilgan badiiy matnlarning grammatik tahlili jarayonida pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish omili ekanligini anglash, insonparvarlik mazmunidagi matnlarning leksik, sintaktik, uslubiy tahlili orqali talabalarda pragmatik kompetensiyani takomillashtirish texnologiyasini ishlab chiqish zarur.
- 12. Ona tili ta'limiga kognitiv-pragmatik yondashuvning muvaffaqiyati unda qo'llaniladigan metodlar bilan birga didaktik vositalarga ham bog'liq. Ular:
- a) verbal (oʻquv axborotlarni soʻz orqali uzatish va eshitish orqali qabul qilish— savol-javob, tahlil, matn yaratish, uni tahlil qilish, hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar) ta'sir— bu soʻz va nutq orqali koʻrsatiladigan ta'sir. Bu borada asosiy vositalar—soʻzlardir;

- b) oʻquv axborotini koʻrgazmali uzatish va koʻrish orqali qabul qilish (koʻrgazmali metodlar tasviriy, namoyish qilish va b.).
- 13. Insonparvarlik tarbiyasini singdirishda testlar, yozma nazorat, ijodiy matnlar, grafik organayzerlar, koʻrgazmali ragʻbat kartochkalari, samimiy tilaklar savatchasi, tarqatmalar bilan ishlash, taqdimot slaydlar, rasmli matnlar, multimedia ilovali metodik qoʻllanmalar, videoroliklar, videomatnlar, videotopishmoqlar, xalqaro baholash dasturi asosidagi kognitiv-pragmatik yondashuvli keyslar, portfolio ham samarali vosita sanaladi.
- 14. Tadqiqot doirasida oʻtkazilgan pedagogik tajriba-sinov ishlari, ya'ni ona tili ta'limini kognitiv-pragmatik yondashuv texnologiyalari asosida oʻqitish natijasida: a) til hodisalari kognitiv-pragmatik ilmiy paradigma asosida tahlil qilinadi; b) til va tafakkur, til va madaniyat, til va jamiyat munosabati masalalarini tahlil qila olish koʻnikmasi hosil qilinadi; d) matnni inson omilini hisobga olib tahlil qilish malakasi rivojlantiriladi; e) lisoniy va nutqiy hodisalarni kognitiv-pragmatik yondashuv tamoyillari asosida lingvistik tahlil qilish oʻrgatiladi.

#### Tadqiqot natijasi asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- fanda yuzaga kelgan vaziyatni majmuaviy tadqiq qilish, boʻlgʻusi ona tili oʻqituvchilarini tayyorlashda yetakchi ilmiy yoʻnalishlarni oʻrganish; ilmiy, psixologik, pedagogik, oʻquv va metodik adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar bazasini tahlil qilish, shuningdek, olib borilgan tadqiqotlar hamda shaxsiy, kasbiy pedagogik faoliyat, tajriba boʻlgʻusi ona tili oʻqituvchilarining kasbiy malakalarini takomillashtirishni samarali amalga oshirish uchun ularda bilim, koʻnikma, fikrlash, yoʻnalish, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish;
- kognitiv-pragmatik yondashuvli ma'lumotlar bankini toʻplash va ulardan dars maqsadlariga koʻra oʻrinli va unimli foydalanish;
- bilimlarni integratsiyalashgan tizim asosida talabaga yetkazishga qaratilgan jarayonda oʻqituvchi va talaba faoliyatini belgilash (kim qaysi vazifani qanday bajarishi kerakligini aniqlab olish va shunga koʻra dars loyihasini ishlab chiqish);
- ta'lim maskanlarida 3-4-sinfdan boshlab mustaqil esse yozishni oʻrgatish. Har yil soʻz va belgilar oʻlchovini koʻpaytirib, mukammallashtirib borish. Boshlangʻich ta'lim ʻyoʻnalishdagi talabalarning yozma ishlarini shifrlab, boshqa ta'lim muassasasiga telegramm orqali tekshiruvga yuborish. Plagiat va bir-biridan koʻchirishni qattiq jazolash. Natijalarni oshkora tarzda telegramm kanallarida berib borish;
- media ta'limning "o'zbek modeli"ni ishlab chiqish va uning komponenti sifatida milliy g'urur, o'zlik, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi tuyg'ularni shakllantirish vazifasini ham yuklash;
- qoʻyilgan maqsadga erishganlik darajasi me'yorlarini ishlab chiqish kerak. Bunda har bir qoʻyilgan maqsad alohida oʻz mazmuniga xos ravishda tekshiriladi va natijalar tahlil qilinib, xulosalar chiqariladi. Buning uchun ta'limda aniqlashtirilgan maqsadlarni ishlab chiqish;
- metodik turkumdagi fanlar uchun multimedia ilovalari va ulardan foydalanish boʻyicha metodik qoʻllanmalar, koʻrsatmalar va tavsiyalar hamda mashgʻulotlar ishlanmalarini kognitiv-pragmatik yondashuv talablari asosida ishlab chiqish;
  - ona tili ta'limini ham xalqaro baholash dasturlariga moslashtirib borish.

# РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

# БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

# АДИЗОВА НОДИРА БАХТИЁРОВНА

# МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПРОБЛЕМНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ (на примере обучения родному языку)

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (узбекский язык)

АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА (DSc) ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована под номером № B2023.1. (DSc) /Ped438 в Высшей Аттестяпнонной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) выложен на веб-странице Научного совета (www.buxdu.uz) и на Информационном образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyonet.uz)

Научный консультант:

Нурудлаева Шахло Уктамовна

доктор педагогических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты:

Абузалова Мехринисо Калировна

доктор филологических наук (DSc), профессор

Мавлонова Кларахон Махмутовна

доктор педагогических наук (DSc), профессор

Аскарова Манзура Авазбековна

доктор педагогических наук (DSc), профессор

Ведущая организация:

Навоийский государственный университет

Защита диссертации состоится « В » КОЗБрх 2025 года в « 13 » часов на заседании Разового Научного совета при Научном совете DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200118, город Бухара, удица М.Икбол. 11. Ten: +99865 221-29-14; факс: +99865221-27-57; e-mail: buxdu rektor@buxdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № 760). Адрес: 200118, город Бухара, улица М.Икбол, 11. Тел: +99865 221-25-87).

Автореферат диссертации разослан « 6 » колбря 2025 года

(Протокол реестра рассылки № 1 от « 6 » не

Е.Сандов совета чён<del>а</del>м/степеней, доктор

урофессор

₹<del>П</del>.И.Гайбуллаева секретарь Научного совета по

присуждению учёных степеней, доктор

филологических наук, профессор

-М.К.Абузалова Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

# ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованость темы диссертации. В мировой системе образования изменения в реформах требуют активного внедрения инновационных подходов в педагогические процессы. В образовательном процессе большое значение приобретает гуманистическое воспитание студентов на основе когнитивно-прагматического подхода, а также развитие речевой, лингвистической, прагматической компетенции. В частности, образовательный форум (World Education Forum) и Конвенции Лиссабона играют важную роль в определении инновационных направлений подготовки квалифицированных творческих кадров. В связи с этим актуальное значение приобретает проблема обеспечения вариативности активных интерактивных форм обучения в рамках Болонского процесса, развития профессионально-педагогического творчества студентов высших учебных заведений на основе современных подходов.

когнитивно-прагматической направление развития мире компетентности у студентов на основе проблемных технологий считается одним из ведущих направлений гуманитарных наук в новом веке, и большое внимание уделяется изучению места человека в обществе и постановке человека в центр этого. В частности, практическое значение приобретает эффективное использование возможностей современного раскрытии сущности новых методов развития креативной компетентности обучающихся на основе инновационных технологий изучении преподавании филологических наук. Это требует перехода к новым парадигмам образования не только инновационных подходов к творческому саморазвитию студентов, но и совершенствования методологических основ, позволяющих обеспечить тот же процесс.

В нашей республике современный этап развития системы высшего образования предъявляет качественно новые требования к содержанию и образования, повышению его эффективности. Руководство Президента Ш.М.Мирзиёева о «воспитании молодежи в духе патриотизма, гражданственности, толерантности, уважения к законам, национальным и общечеловеческим ценностям, как личности, способной противостоять вредным влияниям и течениям, обладающей твердыми убеждениями и взглядами на жизнь» закладывает основу для вывода работы в этом направлении на новый уровень В нем в качестве важнейшей приоритетной задачи определены дальнейшее совершенствование системы непрерывного образования, расширение возможностей качественных образовательных услуг, продолжение политики подготовки высококвалифицированных кадров современных потребностей рынка труда. Содержание приоритетных задач, определенных в указах «О мерах по коренному

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли "2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўгрисида" ги Фармони. // lex.uz.

повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного языка» и многих других постановлениях, направлено на повышение качества образования, развитие научной и инновационной деятельности, развитие научных и практических исследований на основе специальных целевых дисциплин, развитие творческой компетентности педагога, прославление человеческого достоинства, развитие соответствующих знаний, умений, навыков и компетенций по широкому применению принципов и технологий современного подхода на практике. С этой точки зрения актуальное значение совершенствование технологий развития приобретает когнитивнопрагматической компетентности у студентов на основе проблемных технологий в процессе обучения родному языку $^2$ .

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, № УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» от 6 ноября 2020 года, № УП-5850 «О мерах по коренному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного языка» от 21 октября 2019 года, а также в проектах государственной программы «Дальнейшее совершенствование системы преподавания государственного языка в образовательных учреждениях и оценки уровня его владения, повышение престижа государственного языка как языка науки», а также в других нормативно-правовых документах по данной теме<sup>3</sup>.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики І. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовнопросветительском развитии информатизированного общества и демократического государства".

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации**<sup>4</sup>. В ведущих научных центрах и высших учебных заведениях мира, в том числе

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" ПФ-6084-сон Фармони. 2020 йил 20 октябрь.

<sup>&</sup>lt;sup>3</sup> www.lex.uz/ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2019 йил 21 октябрдаги "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавкеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида" ги ПФ-5850-сон Фармони. – Тошкент. 2019 й. 21 октябрь.

<sup>&</sup>lt;sup>4</sup> Dissertatsiya mavzusi boʻyicha xalqaro ilmly tadqiqotlar sharhi <u>www.myhomelatvia.com/se/novosti/index; www.jurnal.org/arti - cles/2008/ped9.html; http://iibrary.by/portalus/modules/pedagog-ics/; www.duskyrobin. Com/Z2005-01-00045.pdf (Technical Education: Global Trends and Challenges/on the occasion of International Seminar (2013), Jonson's Institute Of Technology, India). Industrial Technology Education II. Group Training Course/12 June-21 July, 2006. JICA of the Government of Japan. Role of English language in Educational System under Bologna program/ seminar (2017, Tashkent) va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan.</u>

Belfield pedagogical university (Германия), National Advice on pedagogical technology (Англия), AICHI university of Education (Япония), National Institute Of Technical Teachers Training And Research (Индия), Shaansi Normal University (Китай), Princeton university (США), Академии образования (Россия), Ташкентском государственном педагогическом университете (Узбекистан) проводятся научные исследования по совершенствованию методологических и научно-методических основ развития профессионально-педагогического творчества будущих учителей в современных условиях, разработке системных моделей интегративного профессионального образования и объективной оценке результатов.

